



**TARBIYA FANINI O'QITISH ORQALI O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHI
QIZLARDA MA'NAVY TARBIYANI YUKSALTIRISH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10864801>

Usmonova Nargiza Raximjonovna

Qo'qon universiteti

"Ta'lim " kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Tarbiya" fanini o'qitish orqali maktab o'quvchilarida ma'naviy tarbiya haqida umumiy tushuncha berish hamda ma'naviy tarbiyani oilada hamda ta'lim muassasasida yuksaltirib borish haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar

tarbiya, ma'naviy tarbiya, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, oila tarbiyasi, oilaviy qariyatlar.

Har qanday jamiyatning kelajagi yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati yuksak darajada shakllangan, kreativ fikrlay oladigan zamonaviy bilimlardan xabardor zamon bilan hamnafas yoshlarga har tomonlama bog'liqdir. Zamon bilan hamnafas dunyoqarashi keng manaviyati yuksak darajada shakllangan oilaviy tarbiyasi odob-axloq mezonlari bilan uyg'unlashtirilgan farzandlarimizning ongi-shuuriga tarbiyaviy masalalarni singdirishda ota-onalarning pedagog-marabbiylarning mahallaning ham roli va o'rni bag'oyatda kattadir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon bo'lib shaxs o'zidagi axloqiy sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirilishiga aytiladi. Darhaqiqat shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi konsepsiyasida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi konsepsiyaning maqsadida – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

-ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>



-tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

-bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

-tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

-ma'naviy tarbiyani shakllantirishga oila, mahalla va ta'lim muassasalari shuningdek ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

-ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Ma'naviy tarbiya-yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi , muayyan shaxs jamoa , muayyan guruh, jamiyat , millatda jismoniy barkamollik , ruhiy axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatida mohiyatini ta'minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir. Yurtboshimiz ta'kidlanganidek, manaviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik , qatiyat va ma'suliyat yo'qotilsa , bu o'ta muhim ish o'z holiga , o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa , muqaddas qadriyatlarga yo'grilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma'naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib , oxir-



oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'ldan chetga chiqib qolish mumkin. Zeroki millatni kelajagini o'ylagan dono xalqimiz azaldan farzandlarga tarbiya berishda oilada tarbiyani avvalo ona qornidan boshlashni tavsiya etishadi. Ushbu haqda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ham ta'kidlab o'tilgan.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ma'naviy tarbiya bosqichlari quyidagicha:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 3 – 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich -umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida :birinchi davr-7(6)-10 yosh boshlang'ich sinf , ikkinchi davr 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar;

to'rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar – 17 – 30 yosh, ikkinchi davr – o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 – 22 (24) yosh).

Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari davrlar ichida eng qaynoq va jo'shqin davri bo'lgan o'smirlilik pallasiga to'g'ri keladi. O'smirlarga ma'naviy-tarbiya berishda bu davrda axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashni inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlari: o'smirlilik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi- o'smir qizlarda ayollarga xos bo'lgan hislat hamda sifatlar paydo bo'la boshlaydi muloyimlik, kamtarinlik, samimiylilik , irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi- o'smirlilik davriga kelib o'smir qizlarda irodaviy sifatlar asta sekinlik bilan rivojlana boshlaydi ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi- o'smir qizlarda fanlarni bilishga nisbatan qiziqishlarni namoyon bo'lishi yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj bu yangiliklarni bilish orqali o'zini namoyon qilish istagining kuchayishi va hokazo, faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi; shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo'lishi; fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi; milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi; o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi; o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish; xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi; axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi; pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga



erishish yo'lidagi intilishlar;ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvi;ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi;mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi. Umumta'lim maktablarida Tarbiya fanini o'qitish orqali qizlarimizda ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oilaviy muhitning oilaviy muhitda esa oilaviy qadriyatlarning o'rni beqiyos sanaladi.Qizlarimizni ma'nani jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda oilaviy qadriyatlarni oiladan boshlab singdirib borishimiz lozim bu qadriyatlar quyidagicha ko'rinishlarda aks ettirilishi; tug'ilib o'sgan uyi va ona vatanga ota makonga bo'lgan ehtiromi, otabobolarning porliq xotirasiga bo'lgan sadoqati, kattalarga hurmat kichiklarga izzat ruhini yuksaltirish,mehmondo'stlik,bolajonlarga bo'lgan mehr bolajonlik,muomala odobi muomalada mulozamatlilik, hayolilik, andisha saqlay olishlik, axloq qoidalarida rioya qilishlik, odob saqlay olishlik, oilada og'ir kunlar bo'lsa vazminlikni shior qilib olishlik, sabr-toqat qilishlik shular jumlasidandir.O'smir qizlarga ta'lim muassasasida manaviy tarbiya berishda pegagog, pedagoglar jamoasi hamda "Tarbiya" fani o'qituvchisining ham o'rni beqiyos sanaladi.Ma'naviy tarbiya olishda o'smir qizlarimiz albatta dars mashg'ulotlarida berib boriladigan sharq va ga'rb allomalarining purma'no ibratomuz so'zlaridan, matallardan motivatsion iboralaridan ibratnamo rivoyat va hikoyatlardan, manaviy jihatdan ibrat olishga arzigulik mahallada o'z o'rniga ega bo'lgan el xavas qilsa arziydigan insonlar bilan ularning ibratomuz hayotlaridan olingan video roliklar namoyish etish ular bilan olib borilgan jonli suhbatlar qizlarimizni albatta kelajak hayot tog'risidagi tasavvirlariga albatta o'zini ta'sirini ko'rsatmay o'tkazmay qolmaydi.

Xulosa

Ushbu maqola orqali o'quvchi qizlarda ma'naviy tarbiyani ularni ongiga ilk bolalik davridanoq singdirib borishda oilani o'rni beqiyos sanaladi.Oilada bobo buvijonlarimiz, ota-onalarimiz ularning tarbiya usullari oilaviy qadriyatlarning o'rni katta ahamiyatga ega.Oiladagi milliy va madaniy qadriyatlar o'smir qizlarni ma'naviy tarbiyasiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi shuning uchun qizlarimizga bivijonlarimiz shu qadriyatlarga munosib avlod bo'lishlari uchun chin yurakdan yuksak ma'naviyatli, aql zakovatli, kattaga hurmat kichikni izzat qiliuvchi shaxs bo'lib yetishishlari uchun o'z maslahatlarini berib borishadi.Shu bilan birgalikda o'smir qizlarni ma'nani jihatdan tarbiyalab borishda maktab oila mahalla hamkor bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.Zeroki qizlarimiz tarbiyasi buyuk millatni kelajagidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1 Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent.: Sano Standart, 2017-yil.

2 Ro'ziyeva .D.I Tolipov .O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo. 2019-yil.

3 Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova S, SH Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik . Toshkent. TDPU, 2012-yil.

4 Pedagogika .M Toxtaxodjayevning umumiy tahriri ostida .Darslik. Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati. 2010-yil

5 O' Asqarova, M. Xayitboyev, M. Nishonov. Pedagogika . Darslik Toshkent " Talqin" 2008-yil.

6 Z. Nishonova . Rivojlanish va ta'lim psixologiyasi. Darslik. Toshkent. 2019-yil.

7. RAXIMJONOVNA, U. N. (2023). O'smir yoshidagi o'quvchilarda "Tarbiya" fanini o'qitish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish. Finland international scientific journal of education, social science & humanities, 11(6), 232-237.

5. ASILOVA, S. X. (2023). O'quvchilarni kasb-hunarga yo 'naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.

6. XURSANOV, O. (2023). Talabalarni hamkorlik texnologiyasi asosida o'quv - ma'naviy moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirish texnologiyasi (1 - kurs talabalari misolida). educational research in universal sciences, 2(12), 264-269. retrieved from